https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

DILSHODOV SHOXJAHON SHERZOD O'G'LI

Toshkent irrigatsiya va qishloqxo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari institute

Milliy Tatqiqod Universiteti Iqtisodiyot fakulteti

BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINI OLIY TA'LIMDA O'QITISH JARAYONIDA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETUVCHI SINERGETIK YONDASHUV HAQIDA

Annotatsiya: Maqolada pedagogika va psixologiya fanlarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida shaxsiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi sinergetik yondashuvning muhim jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning sifat ko'rsatkichlari va talabalarning bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishdagi o'rni batafsil o'rganiladi. Muallif pedagogik ta'lim tizimlarida masofaviy o'qitishning samaradorligini oshirish uchun sinergetik yondashuvni qo'llashning ahamiyatini va bu yondashuvning ilmiy manbalardagi aks etishini tahlil qiladi. Tadqiqotda talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va masofaviy ta'limning bu jarayondagi roli ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika va psixologiya,pedagogik yondashuv,sinergetik yondashuv,,bilim va ko'nikmalar,masofaviy ta'lim

Abstract: The article analyzes the important aspects of the synergistic approach that affects personal development in the process of teaching pedagogy and psychology in higher educational institutions. In particular, the qualitative indicators of the use of distance learning technologies and their role in the independent development of students' knowledge and skills are studied in detail. The author analyzes the importance of using a synergistic approach to increase the effectiveness of distance learning in pedagogical education systems and the

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

reflection of this approach in scientific sources. The study also considers the need for students for self-development and the role of distance learning in this process.

Keywords: pedagogy and psychology, pedagogical approach, synergistic approach, knowledge and skills, distance learning

Аннотация: В статье анализируются важные аспекты синергетического подхода, влияющего на развитие личности в процессе преподавания педагогики и психологии в высших учебных заведениях. В частности, будут подробно изучены качественные показатели использования дистанционных образовательных технологий и их роль в самостоятельном развитии знаний и умений студентов. Автор анализирует значимость использования синергетического подхода для повышения эффективности дистанционного обучения в системах педагогического образования и отражение этого подхода в научных источниках. В исследовании также изучается потребность студентов в саморазвитии и роль дистанционного обучения в этом процессе.

Ключевые слова: педагогика и психология, педагогический подход, синергетический подход, знания и умения, дистанционное обучение.

Pedagokika tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o‘quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o‘rganiladigan o‘quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi.

Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug‘ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi bilan shug‘ullanishni ko‘zda tutadi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi,faoliyatini

anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat o‘qitish tushunchasini ifoda etadi. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

Psixologiya oliy o‘quv yurtlarda o‘quv predmeti va fan sifatida o‘rganiladi. O‘quv predmeti sifatida ta’lim muassasi o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lib, talabalarning umumkasbiy tayyorgarligiga yo‘naltirilgan o‘quv fanlari tizimidan joy olgan, uni o‘rganish uchun ma’lum o‘quv soatlari ajratilgan va turli shakldagi mashg‘ulotlar: ma’ruza, seminar va laboratoriya amaliy, shuningdek, nazorat ishlari va imtihonlar ko‘zda tutilgan. Psixologiya fani o‘ziga xos fan bo‘lgani

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

uchun oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rganadigan ilmiy fanlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. Psixologiyaning fan sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, bu fan hozircha inson uchun noma’lum bo‘lgan, eng murakkab – psixika, insonning ichki olami haqidagi fandir, ikkinchidan, bu fanda bilishning ob’ekti va sub’ekti tutashib ketgan. Bu holat va fikrni shunday ifodalash mumkin: avval inson o‘z fikrlarini tashqi dunyoga yo‘naltirib, so‘ngra o‘ziga murojaat qiladi. Bunda fikr o‘ziga qarata burilish yasagani uchun psixologiyaning vazifalari boshqa fan vazifalari bilan taqqoslab bo‘lmaydigan darajada murakkabdir. Va, uchinchidan, psixologiyaning o‘ziga xosligi uning noyob amaliy oqibatlarga ega bo‘lishidir. Axir biror narsani anglash – uni egallab, boshqarishni o‘rganishdan iborat. Insonning o‘zida kechayotgan psixik jarayonlar, ularning vazifalari, qobiliyatlarini boshqarishni o‘rganish, misol uchun, koinotni zabt etishdan ko‘ra o‘ta murakkab va muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bunda inson o‘zini anglab borgani sayin o‘zini va atrofidagilarni o‘zgartirib borishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Kundalik maishiy bilimlar aniq bo‘lib, haqiqiy vaziyatlarga bog‘liqdir, ilmiy psixologiya esa asosli umumlashtirishga intilgani uchun nazariy tushunchalardan foydalanadi va tekshirilgan ma’lumotlarga tayanadi. Ular ichki fahm xususiyatiga ega bo‘lgani uchun amaliy ruhshunoslarning ko‘pchiligini ayollar tashkil etadi. Ilmiy psixologik bilimlar umumlashtirilgan,maqsadga muvofiq va anglangan bilimlardir. Kundalik maishiy bilimlar chegaralangan bo‘lgani uchun qiyinchilik bilan o‘tkaziladi, ilmiy psixologik bilimlar esa to‘planadi va o‘tkaziladi, shuning uchun doimo kengayib boraveradi. Maishiy psixologiyada bilimlarga ega bo‘lish metodi sifatida kuzatish va mulohaza yuritish qo‘llaniladi. Ilmiy psixologiyada ularga tajriba metodi ham qo‘shiladi.

Ilmiy psixologiyaning afzalligi shundan iboratki, u keng, turli-tuman, noyob ma’lumotlarga egadir. Ular to‘planib, psixologiya fanining maxsus sohalarida, deylik, yosh yoki muhandislik psixologiyasida o‘rganiladi. Ularga biror bir shaxsning alohida o‘zi egalik qilolmaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sinergetika bugungi kunda talaba-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Talaba-yoshlarning yangi tendentsiyalar asosida ishlashga bo'lgan qiziqishlari yana bir dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibida turibdi. Ijodiy va prognostik fikrlash talaba-yoshlarga o'z-o'zini tashkil qilish tizimi sifatida ishlashga yordam beradi. Yangi o'ziga xos uslubni to'g'ri ishlab chiqish o'quv jarayoniga katta hissa qo'shadi. Ochiqlik, chiziqli bo'lmaganlik kabi sinergetik mexanizmlar, mulohazalar talaba-yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy atamalarini yaratishda, ularni o‘ziga xos tizim sifatida belgilashda yetakchi hisoblanadi. Sinergetika talaba-yoshlarni o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy atamalarini yaratishda katta yordam berishi mumkin. Sinergetik yondashuv - bu rivojlanayotgan, tizimli tashkil etilgan tizimlarning ilmiy sohasi bo'lib, unga yosh mutaxassis kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini ham kiritish mumkin. Ushbu yondashuv ko'p o'lchovlilik, murakkablik va bilish jarayonlarining muqobilligi doirasida talabayoshlarning o'zini-o'zi tashkillashi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Talabayoshlarning o'z-o'zini rivojlantirishda tasodifiylikning muhim rolini tan olish katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, integral sinergetik tizimni tashkil etuvchi bir nechta murakkab tizim komponentlarini o'z ichiga olgan tizimlar aslida xilma- xillik, tasodifiylik, o'z-o'zidan va oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Muammo shundaki, bo'lajak yosh mutaxassis amaliy va ilmiy faoliyatda doimiy ravishda paydo bo'ladigan o'zgarishlarga tez munosabatda bo'lish qobiliyati va kasbiy harakatchanligiga ega bo'lishi kerak. Qichqacha aytganda, sinergetik yondashuv zamonaviy oliy ta’lim muassasasida talabala-yoshlarni tayyorlashni takomillashtirishning asosiy masalalaridan biridir

Ta’lim jarayonidagi sinergetik yondashuvga rivojlantirish modeli sifatida e’tibor berilgan. Attraktorlar yopiq tizimlarni ochishga yordam berishlari keltirib o’tiladi. Boshqa murakkab tashkil etilgan tizimlar kabi ta’lim tizimi ham bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular: o'ziga xoslik, originallik, sub'ektivlik, xilma-xillik. Sir emaski, insoniy munosabatlar chiziqli emas. Deviant xulq-atvor

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

holatlari yuzaga kelganda, eski mavjud tamoyillar samarali ishlay olmaydi, faqat sinergetik yondashuv bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi bo'lib, u inson ongida aks etadi hamda bilimning ilmiy, empirik va nazariy turlari farqlanadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‟ra, o‟quvchilarning bilim darajasini quyidagilar tashkil etadi:

1) o'quv fanlari bo'yicha nazariy tushunchalarga ega bo'lish;

2) o'quv fanlari bo'yicha yangi axborot va ma'lumotlarni egallash;

3) voqelik va hodisaning mazmunini tushunish;

4) ijtimoiy ong va mustaqil fikrga ega bo'lish

. Ko‘nikma – bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o‟z-o‟zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o'quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan ko'nikma ongli faoliyatni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayonining natijasi hisoblanadi. O'quvchilarning ko'nikmasi o'zlashtirgan bilimlari asosida tarkib topadi. Ko'nikma quyidagi xususiyatlarga ega:

1) bilim olishga odatlanish;

2) axloqiy fazilatlarni o‟zlashtirish;

3) ijtimoyi jihatdan faollashib borish;

4) yangiliklarni o‟zlashtirishga qiziqish.

Masofaviy ta'lim uslubi o‘qitishning yangicha zamonaviy shakli bo‘lib, u tinglovchi (o‘quvchi)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o‘rgatadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Masofaviy ta’limning afzalligi shundaki, unda har kim o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta’lim – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o‘qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda ko‘pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag‘larini tejamoqda.

Shuningdek, masofaviy ta’limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo‘lib, masalan, o‘qitish uchun sinflar, doskalar, stollar va boshqa o‘quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki bu tizim samarasida xarajatlar kamayadi. O‘quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik o‘quvchiga foydali bo‘ladi.

Bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi onlayn dars jarayonidir. Bunday darslar uchun avvalo kommunikatsiya, masofaviy ta’lim uslubiy materiallari, elektron va odatdagi darsliklar, audio va video darsliklar, onlayn darslar (internet sahifa) elektron kutubxonalar, testlar, multimedia elektron darsliklar va, albatta, internetga ulangan kompyuter kerak bo‘ladi.

Bunday ta’limda o‘quvchi har kuni ta’lim muassasasiga borishi shart emas. Shu bilan birga bu tizim vositasida salomatligi cheklanganlar, uzoq hududlarda yashovchi bolalar, hatto mahkumlar bilan birga bo‘lib turgan bolalar ham ta’lim olishi mumkin.

Xulosa, pedagogika va psixologiya fanlarini oliy ta’limda o‘qitish jarayonida sinergetik yondashuvni qo‘llash ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustaqil

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tarzda rivojlantirish, masofaviy ta'limning samaradorligini oshiradi. Ammo, sinergetik yondashuvni tatbiq etishda duch kelinadigan muammolarni hal qilish zarurati mavjud bo'lib, bu borada pedagogik kadrlarni tayyorlash va metodik yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz." T.:

—O'zbekiston NMIU, 2017. -488 b.

2.S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.5 p

3.T. Dombrovan, An Introduction to Linguistic Synergetics (Cambridge Scholars Publishing, Cambridge, 2018).

4. E.N. Knyazeva, S.P. Kurdyumov, Foundations of synergetics: aggravation, selforganization, tempomir (SPb, Aleteya, 2002).

5. Xasanboev J va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug"at. –T.: "Fan va texnologiya". 2009. 70-bet.

6.*Adliya a'lochisi* ***O'.Jalolov nutqi***